

---

## Farg'ona shaharlik 7 nafar Mehribonlik uylari bitiruvchilariga yangi uylar topshirildi

"Mehr daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan Farg'ona shahar hokimligi tomonidan joriy yil davomida 7 nafar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan Mehribonlik uylari bitiruvchilariga yangi uy uchun order va ushbu xonadon kalitlari tantanali ravishda topshirildi.

Navbatdagi so'nggi uy Diyorbek Isaqovga Qirguli mavzeidan topshirildi. E'tiborlisi, xonadon barcha maishiy va zarur uy-ro'zg'or jihozlari bilan to'liq ta'minlandi.

- Men bugun juda ham hursandman. Mehribonlik uyini bitirib, Qozog'iston davlatiga ishlash uchun bordim. U yerdan qaytganimdan so'ng Farg'ona shahar hokimligi vakillari Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan menga uy berilishini aytishganda juda hursand bo'lgan edim. Bu uyda barcha zarur sharoitlar bor. Bu e'tibor va g'amxo'rlikdan juda minnatdorman. Albatta, yurtimiz uchun xizmat qiladigan fidokor va komil inson bo'lishga harakat qilaman, - deydi Diyorbek Isaqov.

Farg'ona shahar hokimligi  
Axborot xizmati

2023-06-13 18:36:51